

**WASEI-EIGO (YAPONIYADA YARATILGAN INGLIZCHA SO'ZLAR)**

Yunusova Marjona Toshpo'lat qizi

O'zDJTU talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20180270>

**Annotatsiya:** Ushbu maqola yordamida yapon tilida tez-tez uchraydigan wasei-eigo ((和製—英語) tushunchasi, uning yapon tili leksikasidagi o'rni va nima uchun bu mavzu dolzarbligi haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz. Inglizcha so'zlarning qisqarishi, birikishi yoki ma'no ko'chishi orqali yangi so'z hosil bo'lish mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Eng ko'p qo'llaniladigan wasei-eigo ((和製—英語) so'zlari tahlil qilinib, yaponlarning ularni yaratishidan maqsadi nima ekanligi, shu bilan birga zamonaviy yapon tili va madaniyatida tutgan o'rni bilan tanishib chiqamiz.

**Kalit so'zlar:** wasei-eigo, gairaigo, element, pasokon (パソコン), manshon (マンション), sarariman (サラリーマン), psevd-anglisizmlar, katakana yozuvi.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается понятие васэй-эйго (和製—英語), часто встречающееся в японском языке, его роль в японской лексике и актуальность данной темы. Анализируются механизмы образования новых слов путем сокращения, слияния или семантического сдвига английских заимствований. На основе анализа наиболее часто используемых слов васэй-эйго раскрываются цели их создания японцами, а также их место в современном японском языке и культуре.

**Ключевые слова:** васэй-эйго, гайрайго, пасокон, элемент (パソコン), маншон (マンション), сарариман (サラリーマン), псевдо-англицизмы, письменность катакана.

**Abstract:** The present paper examines the concept of wasei-eigo (和製—英語), which frequently occurs in the Japanese language, its role in the Japanese lexicon, and the significance of this topic. The study explores the mechanisms of new word formation through the abbreviation, compounding, or semantic shift of English words. By analyzing the most commonly used wasei-eigo terms, the article identifies the underlying purposes for their creation and discusses their importance in contemporary Japanese language and culture.

**Keywords:** Wasei-eigo, gairaigo, element, pasokon (パソコン), manshon (マンション), sarariman (サラリーマン), pseudo-anglicisms, katakana script.

Wasei-eigo (和製—英語) so'zma-so'z tarjima qilinganda: Yaponiyada ishlab chiqarilgan ingliz tili degan ma'noni anglatadi. Bu tushuncha shunchaki inglizcha so'zlar yoki iboralar asosida yaponlarning o'zlari tomonidan yaratilgan, biroq standart ingliz tilida mavjud bo'lmagan, mutlaqo boshqa ma'noni anglatuvchi so'zlardir. Tilshunoslikda bular soxta o'zlashmalar (pseudo-loanwords) deb yuritiladi. Ular tashqi ko'rinishidan gairaigo (xorijiy o'zlashma so'zlar) kabi katakana alifbosida yoziladi, lekin ingliz tilida muloqot qiluvchilar uchun ko'pincha tushunarsiz bo'ladi. Kundalik muloqot asosida bu so'zlar shunchaki jargon emas, balki rasmiy yangiliklar, darsliklar, biznes va kundalik nutqda cheklovlarisiz ishlatiladi. Til o'rganish pedagogikasiga yuzlansak, yapon tilini xorijiy til sifatida o'rganayotgan talabalar darsliklarda (masalan, Minna no Nihongo kitobida) ushbu so'zlarga tez-tez duch kelishadi. Ularning farqini bilish til kontekstini to'g'ri tushunish uchun zarur bosqichlardan biridir. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, 1958-yilda Tokiodagi Imperial mehmonxonasi Skandinaviyacha shved stoli uslubida yangi restoranni ochadi. Bu tizimga (Viking) deb nom beriladi. Shundan beri Yaponiyada barcha yeyishingiz cheklanmagan restoranlar (Viking) deb

nomlanilgan. Ingliz tilida bu soʻz ayyor, zukko degan ijobiy shakldagi maʼnoni bildiradi. Yaponiyada esa faqat imtihonda koʻchirish (jinoyat, qoidabuzarlik) maʼnosida ishlatiladi. Albatta biz oʻylayotgan soʻz – Cunning (カニング). Jet Coaster haqida kinolarda eshitganmiz. Yapon tilida (ジェットコースター) shaklida yoziladi. Amerikaliklar: Roller coaster deb atashadi. Yaponlar esa tezlikni ifodalash uchun Jet (reaktiv samolyot) soʻzini qoʻshib yuborishgan. Ular oddiy oʻzlashma soʻzlar (Gairaigo) kabi shunchaki boshqa tildan oʻtib qolmagan, balki bu soʻzlar ingliz tilida mavjud boʻlmasligi yoki mutlaqo boshqa maʼnoni anglatishi mumkin. Masalan, yaponcha sukinshippu (skinship) soʻzi inglizchada mavjud emas, biz hatto duch ham kelmaganmiz, lekin yaponlar tilida (jismoniy yaqinlik) maʼnosida ishlatiladi. Fonetika va yozuv jihatidan olsak, ushbu soʻzlar yapon tili fonetikasiga toʻliq moslashgan va har doim katakana alifbosida yoziladi. Bu ularni tilning vizual va akustik qatlamida shaksiz ajratib turadi. Hattoki nutqni qisqartirish yoʻlida yaponlar uzun inglizcha birikmalarni qisqartirish orqali yangi, qulay leksik birliklar yaratishadi. Masalan, Personal Computer oʻrniga Pasokon (パソコン) deya foydalanib kelishmoqda. Globallashuv va tilning transformatsiyasi buni qya usulda tasvirlashi ham qiziqarli: hozirgi kunda texnologiya va gʻarb madaniyati taʼsirida yapon tiliga yangi tushunchalar kirib kelishni boshladi. Wasei-eigo yapon xalqining bu yangiliklarni qanchalik kreativ qabul qilishini aks ettiradi. Kompyuter tilshunosligi (Computational Linguistics): kelajakda til va texnologiya bilan ishlamoqchi boʻlgan mutaxassis (masalan, bizdek magistraturaga tayyorlanayotgan talabalar) uchun bu kabi neologizmlarni oʻrganish juda muhim. Chunki sunʼiy intellekt va lugʻat bazalari bu soʻzlarning soxta inglizcha ekanligini tushunishi kerak.

Madaniy koʻpriklar orqali yaponlarning dunyoqarashini, masalan, ofis madaniyatini (sarariman) yoki yashash sharoitini (manshon) soʻzlari vositasida tushunish mumkin.

Wasei-eigo yasaliş turlari shunchaki til hodisasi emas, bu yaponlarning dunyoni qanday ixchamlashtirishi va oʻz madaniy filtridan oʻtkazishining isbotidir. Yapon tili tabiatan ritmga asoslanib kelgan. Wasei-eigoning eng hayratlanarli jihati: yaponlar uzun inglizcha iboralarni deyarli har doim 4 ta boʻgʻinga (mora) tushirishadi. Bu quloqqa yoqimli va aytishga oson boʻlishiga koʻmaklashadi. Ikki soʻzning boshlangʻich boʻgʻinlarini birlashtirish yordamida Personal Computer \rightarrow Pa-so-ko-n (パソコン), Remote Control \rightarrow Ri-mo-ko-n (リモコン) soʻzlari yasalgan. Qiziqarli tomoni yaponlar uchun bu soʻzlar shunchaki qisqartma emas, ular yangidan tugʻilgan yaponcha tushunchalardir. Inglizlar tushunmaydigan inglizcha soʻzlar maʼno jihatidan oʻzgartirilgan. Bu usulda soʻzning shakli hech bir yangilik mavjud emas, lekin yaponlar unga mutlaqo yangi ruh berishadi. Bu tilshunoslikda semantik siljish deyiladi. Gʻarb tushunchasini yapon turmush tarziga moslab qayta talqin qilish. Misol sifatida Handle (Handoru - ハンドル) soʻzini tahlil qilaylik. Ingliz tilida bu eshik dastasidan tortib koʻp narsani anglatishi mumkin, lekin yapon haydovchisi uchun bu faqat rul. Eng takrorlanmas yasaliş usuli bu — inglizcha soʻzni olib, unga yaponcha mantiq bilan yangi sherik qoʻshishdir. Wasei-eigo — bu shunchaki xato gapirish emas. Bu yapon xalqining lingvistik dizaynerlik qobiliyatining qay drajada yuksalganini anglatadi. Ular oʻzga tildan xomashyo olib, uni yaponcha ehtiyojlar zavodida qayta ishlab, butunlay yangi intellektual mahsulot yaratgandek gap. Wasei-eigo hodisasi shunchaki tilga chetdan kirib kelgan begona soʻzlar emas, balki yapon xalqining intellektual va madaniy moslashuvchanligining yorqin timsoli desa mutlaqo xato boʻlmaydi. Ushbu tadqiqotdan quyidagi xulosalarga kelindi; yapon tili oʻzga tildan

tayyor soʻzni shunchaki qabul qilmaydi, balki uni oʻzining qatʻiy fonetik va semantik qoliplariga solib, butunlay yangi yaponcha mazmun bilan boyitib oʻzlariga qulaylik yaratishadi. Bu jarayon yapon tilining naqadar hayotiy ekanligini koʻrsatadi.

Pasokon, Sarariman yoki Skinship kabi soʻzlar ortida faqatgina tushunchalar emas, balki yapon jamiyatining turmush tarzi, ofis madaniyati va insonlararo munosabatlarining oʻziga xos qirralari yashiringan. Bu soʻzlar yapon dunyoqarashini gʻarb uslubi bilan uygʻunlashtiruvchi oʻziga xos koʻprik vazifasini oʻtaydi. Globallashuv davrida bunday psevd-anglisizmlarning koʻpayishi tilning zaifligini emas, aksincha, uning oʻzligini saqlagan holda zamonaviylashish qobiliyatini aks ettiradi. Kompyuter tilshunosligi va xalqaro muloqot rivojlanayotgan bir paytda, Wasei-eigo kabi hodisalarni oʻrganish yapon tili leksikasining ichki qonuniyatlarini chuqurroq anglashga ham xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Алпатов В.М. Избранные труды 20 века. — М.: Языкознание, 2023. — 459 с.
2. Алпатов В.М. Япония: язык и культура. — М.: Языки славянских культур, 2008. — 208 с.
3. Stanlow J. Japanese language: Language and Culture Contact. Hong Kong University Press, 2004 – 12-13pp.
4. Tsukamoto K. Gairaigo koozuini ukabu hookoo. Gairaigo. Tokyo: Kotoba-Yomiuri, 1993 – 37 p.
5. Hiro S. Kodomoto gairaigo. Gengo seikatsu, 1984. – 64-65 pp.
6. Loveday L.J. Language Contact in Japan. A Socio-Linguistic History. Oxford, 1996. – 66 p.
7. Loveday L.J. Language Contact in Japan. A Socio-Linguistic History. Oxford, 1996. – 101 103 pp.
8. Passin H. Japanese and the Japanese. Language and Culture Change. Tokyo, 1980. – 63 p.
9. Gottlieb N. Language and Society in Japan. Cambridge University Press, 2005. –13p.